Aslini olganda xalqaro munosabatlarni zaharlab kelgan “sovuz urush” 80-yillarning ikkinchi yarmiga qadar davom etdi. G‘arb va Sharq o‘rtasidagi munosabatlar keskin holatda bo‘ldi. Ikki blok qarama-qarshiligi ba’zi hollarda xatarli darajaga yetib borardi. Bu esa insoniyatni yadroviy urush yoqasiga yetaklagan o‘ta xavfli xalqaro inqirozlarni keltirib chiqarardi. Shunday davrlar bo‘ldiki, keskinlik pasayib (70-yillar), turli bloklarga mansub davlatlar o‘rtasidagi munosabatlar yaxshilandi, qurollanish poygasini cheklashga qaratilgan o‘zaro maqbul shartnomalar va kelishuvlar imzolandi. Ammo ikki guruh rahbariyatining yaxshi o‘ylanmagan qadamlari oqibatida munosabatlar qaytadan buzilardi (70-yillarning ikkinchi yarmi - 80-yillarning birinchi yarmi) va dunyo xalqaro vaziyatning navbatdagi keskinlashuvini yana kuzatrdi.

Xalqaro munosabatlар xarakterida tub burilish 80-yillarning ikkinchi yarmi - 90-yillarning boshida ro‘y berdi. SSSRda hokimiyat tepasiga yangi rahbarlarning kelishi sovet tashqi siyosatini “yangicha fikrlash” tamoyillari asosida keskin yangilash imkonini yaratdi.

Xavfsizlik umum qamrovli xarakterga ega bo‘lishi va birinchi galda siyosiy vositalar orqali ta’milanishi lozimligi tan olindi.

“Umumevropa uyi”ni qurish g‘oyasi rivojlandi va keng jamoatchilik tomonidan qo‘llab - quvvatlandi.

Ushbu davrda AQSH va SSSR o‘rtasidagi munosabatlar yaxshilandi. Ikki tomon bir-biroviga dushman sifatida qarashni to‘xtatishdi. Sovet - amerika o‘zaro munosabatlarning yaxshilanishi natijasida yadroviy va oddiy qurollarni sezilarli darajada qisqartirish bo‘yicha bir qator muhim shartnomalar va bitimlar imzolandi.

Shu paytning o‘zida ko‘plab mintaqaviy mojarolar va xalqaro masalalarni tartibga solishga qaratilgan siyosiy qadamlar qo‘yildi. 1990-yilda Germaniyaning birlashishi Ikkinchi jahon urushi yakunlari tagiga so‘nggi chizig‘ni tortdi.

SSSR ning parchalanib ketishi va MDX ning (Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi) tashkil topishi Markaziy va Janubi-Sharqiy Yevropa mamlakatlarida yangi tartibotlarning o‘rnatalishi, Varshava shartnomasi tashkilotining o‘zini o‘zi tarqatib yuborishi 90-yillarda dunyodagi geosiyosiy vaziyatga taaluqli yirik o‘zgarishlarga olib keldi.

Shu bilan bir qatorda, xalqaro tusdagi yirik muammolar ham ko‘zga tashlandi: diniy mojarolarning yangi o‘chog‘lari paydo bo‘ldi, yadroviy qurolni nazorat qilish va tarqatmaslik masalasi yangi keskinlik kasb etdi, o‘tkir ekologik muammolar zo‘rayib ketdi, xalqaro jinoyatchilik va narkotik moddalarini tarqatishning o‘sishi katta tahlika uyg‘otmoqda, terrorchilik xalqaro hamjamiyatning eng dardli muammolaridan biriga aylandi.

Ushbu vaziyatda xalqaro hamjamiyatning harakatlarini birlashtirish va eng muhim xalqaro masalalarni hal etishda BMTning rolini kuchaytirish zaruriyati sezilmoqda.

Qachonlardir, balki, shunday bo‘lgandir. Biroq bugungi informatsion jarayonlar sharoitida hayotning baynalmilallashuvi (internatsionalizatsiya) misli ko‘rilmagan darajalar kasb etmoqda. Informatsion texnologiyalar mamlakatlar, xalqlar va odamlarni bir-biriga shunday yaqinlashtirib qo‘ydiki, bu xalqaro munosabatlar mazmun-mohiyatini tubdan o‘zgartirib yubordi. Shuning uchun ham, garchi davlat rahbarlari, ayrim tor ijtimoiy guruhlari, masalan, diplomatlar, xalqaro munosabatlarda yetakchi rol o‘ynashda davom etayotgan bo‘lsalar-da, oddiy fuqarolar ham ularda faol ishtirok etmoqdalar deyishga barcha asoslar bor.

Ular har kuni chet ellarda tayyorlangan mahsulotlar va xizmatlardan foydalanadilar, xorijiy filmlami kofiadilar, chet ellardan kelayotgan axborotlardan boxabar bofiadilar va hkz.

Tashqi siyosat deganda har bir davlatning xalqaro munosabatlarda tutgan umumiy kursi tushuniladi. Tashqi siyosat ichki siyosat bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, har qanday davlat o‘z ichki manfaatlari asosida tashqi siyosat yo‘lini belgilaydi. Masalan, bir davlat tashqi dunyo bilan iqtisodiy, ikkinchisi siyosiy va iqtisodiy, uchinchisi madaniy va san’at, to‘rtinchisi esa sport sohasida hamkorlik aloqalarini rivojlantiradi. Tashqi siyosat ushbu tanlangan kursni amalga oshirishdagi maqsad va vazifalarni hamda ularning hayotga tatbiq etish vositalari, shakl va usullarini belgilaydi.

Tashqi siyosatning asosiy vazifasi davlatning iqtisodiy - ijtimoiy taraqqiyoti, xavfsizligi hamda davlat va uning fuqarolari huquqi va manfaatlarini chet ellarda himoya qilishini ta’minlovchi muhitni barpo etishdir. Bunday muhitni vujudga keltirish uchun har bir davlat qo‘shni va uzoqdagi davlatlar bilan aloqa o‘rnatadi, munosabatda bo‘ladi, hamkorlik aloqalarini mustahkamlashga intilib, muzokaralar olib boradi va nihoyat u yoki bu masala bo‘yicha muayyan kelishuvga erishadi. Davlatlar o‘rtasidagi aynan ana shu aloqalar xalqaro - davlatlararo munosabatlar tushunchasini ifoda etadi. Xalqaro- davlatlararo munosabatlarni amalga oshirishda tashqi siyosat o‘zining asosiy vositasi bo‘lmish diplomatiyaga tayanadi.

Diplomatik xizmat davlat tizimi doirasida tashkil etilgan xizmat turlaridan biri bo‘lib, u tashqi aloqa idorasining markaziy apparati, shuningdek, uning mamlakat ichidagi va xorijiy davlatlardagi ko‘p sonli bo‘limlaridan tashkil topgan. Diplomatik xizmatning asosiy vazifasi - diplomatiya zimmasiga yuklatilgan o‘ta muhim va nozik

vazifalarni, ya’ni chet davlatlar, xalqaro tashkilotlar bilan keng qamrovli, o‘zaro manfaatli hamkorlik munosabatlari o‘rnatish va ularni rivo-jlantirishdan iborat. Har bir davlatning diplomatik xizmati uning tarixiy tajribasi, an’analari, o‘zida mavjud iqtisodiy, moliyaviy va kadrlar resursi asosida qo‘yilgan vazifalarni bajarish yo‘lidagi faoliyat usullari, vosita va yo‘nalishlari hamda shakllarini belgilaydi.

Davlat diplomatik faoliyatining shakl va yo‘nalishlari quyidagilardan iborat: diplomatik yozishma, davlat va hukumat rahbarlarining chet ellarga rasmiy safarlarini tayyorlash, muzokalar olib borish, xalqaro shartnomalarni tayyorlash va imzolash, xalqaro konferensiyalarda qatnashish, xorijiy davlatlarda diplomatik va konsullik vakolatxonalarini ochish va ularning faoliyatlarini muvofiqlashtirish, xalqaro tashkilotlar faoliyatida davlat vakillarining ishtiroki, muhim xalqaro masalalar bo‘yicha davlat pozitsiyasini matbuotda e’lon qilish, xalqaro hujjatlarni rasmiy chop etish va hokazo. Hozirgi zamon diplomatiyasi F.De Kolyer, G.Nikolson, J.Kambon va boshqa olimlar, diplomatlarning ilmiy asarlarida tavsiya etilgan va tajribada sinalgan quyidagi usullarga tayanadi: to‘g‘rilik va rostgo‘ylik, o‘zaro ishonch va bir-birini hurmat qilish, xalqaro qonunlarga asoslangan holda ish yuritish, ilm, fan va texnika imkoniyatlari hamda tahliliy ma’lumotlar unumli foydalanish va hkz. Bugungi diplomatiya o‘rta asrlarda amaliyotda keng qo‘llangan makkorlik, aldamchilik, fitna uyushtirish, yolg‘on xabar tarqatish va zo‘ravonlik ishlatish kabi N.Makiavelli (Italiyada uyg‘onish davrida yashab ijod etgan olim, yozuvchi va diplomat) tavsiya etgan usullarni mutlaqo rad etadi. Xalqaro tajriba va bir qator ilmiy kitoblarning tasdiqlashicha, o‘z faoliyatida o‘rta asr usullaridan foydalangan diplomatning qilmishi tez orada fosh bo‘ladi va nojo‘ya xatti-harakati bilan nafaqat o‘ziga yoki elchixonasiga, balki o‘z davlati obro‘siga ham katta zarar yetkazadi. Yo‘qotilgan ishonchni yana qaytadan tiklash esa xalqaro munosabatlarda juda og‘ir kechadi.

Turli davlat idoralari ichida tashqi hamkorlik aloqalarini amalga oshiruvchi idoralar muhim o‘rin egallaydi. Ular nafaqat o‘z davlati hududida, balki xorijiy davlatlarda ham faoliyat yuritadi. Shu sababli joylashuviga qarab bu idoralar ichki va xorijiy guruhlarga bo‘linadi. Davlatning ichki idoralari konstitutsion va ixtisoslashtirilgan idoralarga bo‘linadi.

Konstitutsion tashqi munosabat organlariga davlat rahbarining idorasi, parlament va hukumat kiradi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida Prezident, Oliy Majlis va Vazirlar Mahkamasi tashqi siyosiy organlari sifatida belgilangan. Tashqi aloqalarning maxsuslashtirilgan organlari guruhi esa O‘zbekistonda Tashqi ishlar vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi kiradi. Ulardan birinchisi kundalik diplomatik munosabatlar bilan, ikkinchisi iqtisodiy va savdo aloqalari bilan shug‘ullanadi.

Chet davlatlarda joylashgan tashqi aloqa organlari ikki guruhga bo‘linadi: doimiy va vaqtinchalik faoliyat ko‘rsatuvchi organlar. Birinchi guruhga chet ellardagi diplomatik va konsullik vakolatxonalari hamda xalqaro tashkilotlar qoshida tashkil etilgan vakolatxonalar kiradi. Ikkinci guruhga vaqtinchalik faoliyat yurituvchi

organlar guruhibiga esa seremonial tadbirlar (chet davlat boshlig‘ining o‘z lavozimini egallashga bag‘ishlangan tantana, yubiley yoki motam marosimlarida), xalqaro konferensiylar, muzokaralar olib borish, xalqaro tashkilotlarning sessiyalarida qatnashish uchun yuboriladigan maxsus missiyalar kiradi.

Masalan, O‘zbekistonda bunday vazifalar quyidagicha taqsimlangan: Prezident davlat tashqi siyosatini belgilaydi, xorijiy davlatlarda o‘z davlati namoyandaligi vazifalarini ado etadi, chet davlatlar, xalqaro tashkilotlarga yuboriladigan O‘zbekiston elchilari hamda ularning vakillarini tayinlaydi va chaqirib oladi, chet ellik elchilardan ishonch yorliqlarini qabul qilib oladi. Prezident O‘zbekiston davlatining tashqi siyosatini amalga oshirish ishlariga umumiyoq rahbarlik qiladi, muzokaralar olib boradi va xalqaro shartnomalarga hamda ratifikatsiya yorliqlarga imzo chekadi.

Parlament Oliy Majlisning davlat tashqi siyosati bilan bog‘liq qonunlarini qabul qiladi, urush va tinchlik masalalarini, hududiy o‘zgarishlami hal qiladi, xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qiladi va tashqi siyosiy tadbirlarni o‘tkazish uchun moliyaviy xarajatlarni belgilaydi. Ayrim davlatlarda hukumat tashqi siyosat sohasida olib borilgan ishlar haqida parlamentga hisobot beradi.

Xukumat va uning boshlig‘i davlatning tashqi siyosat kursini amalga oshiradi, davlat rahbari va parlament tasdig‘i uchun tashqi aloqalar bilan bog‘liq takliflarni kiritadi, xalqaro shartnomalarni bajarilishini tashkil etadi.

Uch idoranining o‘zaro muvofiqlashtirilgan faoliyati tashqi siyosat, xususan, diplomatiya sohasida yutuqlarga erishishda muhim o‘rin tutadi.

Nazorat savollari:

1. Diplomatiya tarixini asosiy bosqichlarini tavsiflab bering.
2. Diplomatiyaning amalga oshiruvchi muayyan yo‘nalishlari va shakllarini bayon eting.
3. Xalqaro-siyosiy tadqiqotlarning mustaqil fan sifatida diplomatiyani boyitish usullari qanday?

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Abdullayeva L.M. Osobennosti diplomaticeskogo protokola i etiketa. Tashkent. Iz-vo “Zar qalam”, 2005.
2. Blishenko I.P. Diplomaticeskoye pravo. -M.: Vbisshaya shkola. 1990.
3. Borunkov A.F. Diplomaticeskiy protokol v Rossii i diplomaticeskiy etiket. -M.: Iterpraks. 1993y.
4. Berridge G.R. Diplomacy. Theory and Practice. Third edition. - London: Palgrave. 2005
5. Venskaya Konvensiya “O diplomaticeskix snosheniyax”. 1961.
6. Vud DJ., Serre J. Diplomaticeskiy seremonial i protokol. -M.: Progress. 1976.
7. Verma R.C. Foreign policy of the great mughals. -Agra. India: Durga printing. 1967.
8. Dixit J.N. Across borders. -New Delhi: Pirus books. 1998.
9. Diplomaticeskiy slovar. 1-III t. -M.: Nauka. 1986.

10. Encyclopedia Americana. USA. Grolier incorporation. 1993.
11. Rakitov A.I. Istoricheskoye poznaniye: sistemno-gnoseologicheskiy podxod. -M., 1982.
12. Kissindjer G. Diplomatiya/ Per. s angl V.V.Lvova. - M.: Ladomir, 1997

4-mavzu: Xalqaro maydondagi kuchlar muvozanati.

REJA:

- 4.1. "Sovuq urush". Davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, etnik, diniy va b. ziddiyatlar.
- 4.2. Xalqaro tashkilotlar, "yirik" davlatlarning xalqaro munosabatlarga ta'siri.
- 4.3. Zamonaviy va zamonaviy davrda xalqaro munosabatlar tarixini davrlashtirish.
- 4.4. Hozirgi davrda xalqaro munosabatlar va davlatlar tashqi siyosatining xarakterli xususiyatlari.

Tayanch iboralar: Yumshoq kuch, qattiq kuch, Jozef Nay, jahon siyosati, tashqi siyosat, xalqaro munosabatlar, Turkiya, Germaniya, Fransiya, Xitoy davlatlari. konsepsiyasining ayrim nazariy jihatlarining muhokamasi va xalqaro munosabatlardagi davlatlarning "yumshoq kuch" resurslaridan foydalanishda ularning ijobiy tomonlari.

"Sovuq urush" - bu AQSh va Sovet Ittifoqi va ularning ittifoqchilari, G'arbiy blok va Sharqiy blok o'rtasidagi geosiyosiy taranglik davri edi. Tarixchilar bu davrni Ikkinci jahon urushi oxiridan 1945 yil Sovet Ittifoqi tarqalib ketguniga qadar 1991 yilgacha deb hisoblashadi. "Sovuq" atamasi ishlataladi, chunki ikki super kuch o'rtasida bevosita harbiy to'qnashuv bo'limgan, garchi ular butun dunyo bo'ylab proksi urushlarda qarama-qarshi tomonlarni qo'llab-quvvatlagan bo'lsalar ham.

Sovuq urush davrida davlatlar o'rtasidagi asosiy ziddiyatlar:

Mafkuraviy: AQSh va SSSR ikki qarama-qarshi mafkurani ifodalagan: kapitalizm va kommunizm. Ushbu mafkuraviy ziddiyat Sovuq urushning markazida edi va xalqaro munosabatlarning barcha jihatlariga ta'sir ko'rsatdi.

Siyosiy: Ikki super kuch butun dunyo bo'ylab o'z ta'sir doiralarini kengaytirishga intildi va bu siyosiy raqobat va proksi urushlarga olib keldi.

Iqtisodiy: AQSh va SSSR turli iqtisodiy tizimlarga ega edi: bozor iqtisodiyoti va rejalahtirilgan iqtisodiyot. Bu resurslar va bozorlar uchun raqobatga olib keldi.

Harbiy: Ikkala super kuch ham yadroviy qurollarning va an'anaviy kuchlarning ulkan arsenallarini to'pladi va bu global xavfsizlikka tahdid soladigan qurollanish poygasiga olib keldi.

Etnik va diniy: Sovuq urush davlatlar ichida va davlatlar o'rtasida mavjud bo'lgan etnik va diniy taranglikni kuchaytirdi, chunki ikkala super kuch ham bu bo'linishlarni o'z maqsadlari uchun ishlatishga intildi.

Sovuq urush davridagi mojarolar misollari:

Koreya urushi (1950-1953): Kommunistik Shimoliy Koreya va kapitalistik

Janubiy Koreya o'rtasidagi urush, unda AQSh va uning ittifoqchilari Janubni qo'llab-quvvatlagan, SSSR va Xitoy esa Shimolni qo'llab-quvvatlagan.

Vyetnam urushi (1955-1975): Kommunistik Shimoliy Vyvetnam va kapitalistik Janubiy Vyvetnam o'rtasidagi urush, unda AQSh Janubni qo'llab-quvvatlagan, SSSR va Xitoy esa Shimolni qo'llab-quvvatlagan.

Kuba raketa inqirozi (1962): AQSh va SSSR o'rtasida Kubada Sovet yadroviy raketalaring joylashtirilishi bo'yicha qarama-qarshilik.

Sovet-Afg'on urushi (1979-1989): Sovet Ittifoqi va Mujohidinlar o'rtasidagi Afg'onistonidagi urush, unda AQSh Mujohidinlarni qo'llab-quvvatlagan.

Sovuq urush dunyoga katta ta'sir ko'rsatdi. Bu Yevropaning ikki blokga bo'linishiga, qurollanish poygasiga va ko'plab proksi urushlarga olib keldi. Sovuq urushning tugashi 1991 yilda Sovet Ittifoqi parchalanishiga va AQSh boshchiligidagi bir qutbli dunyoning paydo bo'lishiga olib keldi. Biroq, Sovuq urushning merosi bugungi kungacha xalqaro munosabatlarni shakllantirishda davom etmoqda.

"Sovuq urush" davrida davlatlar o'rtasida iqtisodiy, siyosiy, etnik va diniy ziddiyatlar kuchaygan. "Sovuq urush" - bu 20-asrning 40-yillaridan 90-yillarigacha kapitalistik AQSh va uning ittifoqchilari hamda sotsialistik SSSR va uning ittifoqchilari o'rtasida davom etgan global geosiyosiy, iqtisodiy va g'oyaviy ziddiyatdir. Ziddiyatlar sabablari:

Mafkuraviy qarama-qarshilik: Sovuq urushning mohiyati asosan mafkuraviy bo'lgan. Kommunizm va kapitalizm o'rtasidagi kurash kuchaygan.

Geosiyosiy raqobat: Ikki davlat xalqaro masalalarda yetakchilikni o'z qo'liga olishga intilgan. AQSh va Sovet Ittifoqi o'zining ta'sir doirasini yaratdi hamda ularni harbiy-siyosiy bloklar – NATO va Varshava bitimi bilan mustahkamlagan.

Qurollanish poygasi: Raqobat birinchi bo'lib qurol-yarog' sohasiga o'z ta'sirini o'tkazgan. Davlatlar qurollanishdan to'xtamagan, yangi qurol-yarog' tizimlari, tanklar, qiruvchi samolyotlar, kemalar va suvosti kemalarini yaratgan.

Iqtisodiy ziddiyatlar: AQSh hamkorligi ostida Yevropa iqtisodiy hamkorlik tashkiloti tuzilgan. Sovet iqtisodiyotining stagnatsiyasi va katta harbiy xarajatlar sovet hukumatini siyosiy va iqtisodiy islohotlar o'tkazishga majbur qilgan.

"Sovuq urush" davrida dunyo ikki qutbga ajralgan. AQSh va SSSR to'g'ridan-to'g'ri harbiy ziddiyatga kirishmagan bo'lsa ham, ularning dunyoga ta'sir o'tkazish borasidagi raqobati ko'pincha butun dunyo bo'ylab lokal harbiy ziddiyatlarga olib kelgan. Sovet Ittifoqining 1956-yil Vengriyadagi voqealarga aralashuvi, "Praga bahori"ning bostirilishi, AQSh va G'arbning Ispaniyadagi Franko diktaturasini qo'llab-quvvatlashi va Gretsiyadagi "qora polkovniklar" xuntasi hamda ko'plab shunga o'xshash xalqaro ahamiyatga ega voqealar ikki siyosiy tizim o'rtasida Sovuq urush doirasidagi kurash bilan izohlanadi.

Xalqaro tashkilotlar va "yirik" davlatlarning xalqaro munosabatlarga ta'siri quyidagicha:

Yirik davlatlarning ta'siri: Endilikda yirik davlatlar xalqaro munosabatlarda

ko'proq mustaqil rol o'ynash imkoniyatiga ega. Bu, ayniqsa, G'arbiy Yevropa davlatlariga tegishli. Yirik davlatlar zaif subyektlarga kuchli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Xalqaro tashkilotlarning roli: Keng qamrovli xalqaro xavfsizlik konsepsiyasini qabul qilishda va xalqaro xavfsizlikni ta'minlashda xalqaro tashkilotlarning roli muhimdir. XXI asrda globallashuv jarayoni bilan bir qatorda mintaqaviylashuv jarayoni ham yuz bermoqda, ya'ni mintaqalar xalqaro munosabatlar tizimining holatiga omil sifatida ta'sir ko'rsatmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon Savdo Tashkiloti, Yevropa Ittifoqi, NATO, XVF va Jahon banki kabi nufuzli xalqaro tashkilotlarga davlatlar tobora ko'proq vakolatlar bermoqda.

Xalqaro munosabatlarning yangi modeli: Xalqaro munosabatlarning yangi modeli hech qanday holatda yevrosentrik bo'lmaydi. Evrosentrism tamoyili o'z ahamiyatini yo'qotgan.

Xalqaro tashkilotlar va "yirik" davlatlarning xalqaro munosabatlarga ta'siri

Xalqaro tashkilotlar zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida muhim rol o'ynaydi. Ular davlatlar o'rtasida muloqot va hamkorlik uchun maydon vazifasini o'taydi, global muammolarni hal qilishga va tinchlik va xavfsizlikni saqlashga yordam beradi.

Xalqaro tashkilotlarning roli

Hamkorlikka ko'maklashish: Xalqaro tashkilotlar terrorizmga qarshi kurash, iqlim o'zgarishi, iqtisodiy rivojlanish va boshqalar kabi umumiyligi muammolarni hal qilish uchun yaratiladi. Ular ushbu muammolarni muhokama qilish va davlatlar o'rtasida harakatlarni muvofiqlashtirish uchun platforma yaratadi.

Mojarolarning oldini olish: Xalqaro tashkilotlar davlatlar o'rtasidagi mojarolarni hal qilishda vositachi rolini o'ynashi va ularning kuchayishiga yo'l qo'ymasligi mumkin.

Xalqaro huquqni rivojlantirish: Xalqaro tashkilotlar davlatlar uchun xulq-atvor qoidalarini belgilaydigan xalqaro huquqni ishlab chiqish va kodifikatsiya qilishda ishtirok etadi.

Gumanitar yordam: Ko'plab xalqaro tashkilotlar tabiiy ofatlar, urushlar va boshqa inqirozlardan zarar ko'rganlarga gumanitar yordam ko'rsatadi.

"Yirik" davlatlarning ta'siri

AQSh, Xitoy, Rossiya, Germaniya va boshqa "yirik" davlatlar xalqaro munosabatlarda alohida ta'sirga ega. Bu ularning iqtisodiy va harbiy qudrati, siyosiy og'irligi va xalqaro tashkilotlar ishida ishtirok etishi bilan bog'liq.

Kun tartibini shakllantirish: "Yirik" davlatlar xalqaro tashkilotlarning kun tartibini shakllantirishga ta'sir ko'rsatishi, qanday masalalar muhokama qilinishi va hal qilinishini belgilashi mumkin.

Qarorlar qabul qilish: "Yirik" davlatlar ko'pincha xalqaro tashkilotlar tomonidan qarorlar qabul qilishda hal qiluvchi rol o'ynaydi, chunki ular o'zlariga zararli bo'lган har qanday qarorlarni blokirovka qilish imkoniyatiga ega.

Moliyalashtirish: "Yirik" davlatlar, qoida tariqasida, xalqaro tashkilotlarning

asosiy donorlari hisoblanadi, bu ularga o'z faoliyatiga ta'sir qilish imkoniyatini beradi.

Ta'sir misollari

BMT Xavfsizlik Kengashi: AQSh, Rossiya, Xitoy, Fransiya va Buyuk Britaniya kabi "yirik" davlatlar BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy a'zolari hisoblanadi va veto huquqiga ega, bu ularga o'zlariga zararli deb hisoblagan har qanday qarorlarni blokirovka qilish imkoniyatini beradi.

Xalqaro Valyuta Fondi (XVF): AQSh, Germaniya va Yaponiya kabi "yirik" davlatlar XVFda eng ko'p ovozga ega, bu ularga tashkilotning moliyaviy yordam va iqtisodiy siyosat bo'yicha qarorlariga ta'sir qilish imkonini beradi.

Yigirma guruhi (G20): G20 dunyoning eng yirik iqtisodiyotlarini birlashtiradi va global iqtisodiy muammolarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi. G20ga kiruvchi "yirik" davlatlar o'zlarining iqtisodiy siyosatlarini muvofiqlashtirish va jahon moliyaviy bozorlariga ta'sir qilish imkoniyatiga ega.

Xulosa

Xalqaro tashkilotlar zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida muhim rol o'ynaydi va hamkorlikka ko'maklashadi. "Yirik" davlatlar esa o'zining iqtisodiy va siyosiy qudrati tufayli ushbu tashkilotlar faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy va eng yangi davrlarda xalqaro munosabatlar tarixini davrlashtirish quyidagicha bo'linadi:

1945-yilgacha bo'lgan davr: XX asrning birinchi yarmida dunyo bir qator yirik to'qnashuvlarni, Birinchi va Ikkinci Jahon urushlarini boshdan kechirdi. Millatlar Ligasi global muammolarni hal qilish uchun tuzilgan bo'lsa-da, yirik davlatlar tomonidan yetarli darajada qo'llab-quvvatlana olmadi va bir qator inqirozlar dunyonni Ikkinci Jahon urushiga olib keldi.

Sovuq urush: AQSh va Sovet Ittifoqi o'rtasidagi sovuq urush 1947-yilda boshlanib, 1991-yilgacha davom etdi. Sovuq urush dunyo mamlakatlarining ikki lagerga bo'linishi bilan tavsiflanadi - kapitalistik va sotsialistik.

Ba'zi manbalarda "eng yangi davr" jahon tarixining taxminan 1917/18 yildan hozirgi kungacha bo'lgan tarixiy davrini tavsiflovchi qismi sifatida ko'rsatiladi.

Zamonaviy va eng yangi davrda xalqaro munosabatlar tarixini davrlashtirish

Xalqaro munosabatlar tarixi - bu insoniyatning turli davrlardagi davlatlar, xalqlar va jamiyatlar o'rtasidagi aloqalari va munosabatlari tarixidir. Ushbu tarixni davrlashtirishda turli xil yondashuvlar mavjud. Shulardan eng keng tarqalganlari quyidagilar:

1. Formatsion yondashuv

Ushbu yondashuvga ko'ra, xalqaro munosabatlar tarixi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalari (quldarlik, feodalizm, kapitalizm, kommunizm) asosida davrlashtiriladi. Har bir formatsiya o'ziga xos xalqaro munosabatlar tizimiga ega bo'lgan.

2. Sivilizatsion yondashuv

Ushbu yondashuvga ko'ra, xalqaro munosabatlar tarixi sivilizatsiyalarning

(qadimgi, o'rta asrlar, yangi va eng yangi) rivojlanish bosqichlari asosida davrlashtiriladi. Har bir sivilizatsiya o'ziga xos qadriyatlar, madaniyat va xalqaro munosabatlar tizimiga ega bo'lgan.

3. Davrlar bo'yicha davrlashtirish

Ushbu yondashuvga ko'ra, xalqaro munosabatlar tarixi tarixiy davrlar (qadimgi dunyo, o'rta asrlar, yangi davr va eng yangi davr) asosida davrlashtiriladi. Har bir davr o'ziga xos siyosiy, iqtisodiy va madaniy sharoitga ega bo'lgan.

Zamonaviy va eng yangi davr xalqaro munosabatlari

Zamonaviy davr (XVI-XIX asrlar) xalqaro munosabatlarida milliy davlatlarning shakllanishi, merkantilizm, kolonializm, kapitalizmning rivojlanishi kabi xususiyatlar ustuvor bo'lgan. Ushbu davrda Yevropa davlatlari dunyo miqyosida o'z ta'sirini kengaytirishga intilib, ko'plab urushlar va mojarolarga sabab bo'lgan.

Eng yangi davr (XX-XXI asrlar) xalqaro munosabatlarida ikki qutbli dunyo, sovuq urush, yadro qurolining paydo bo'lishi, globallashuv, terrorizmning kuchayishi kabi xususiyatlar ustuvor bo'lgan. Ushbu davrda xalqaro tashkilotlarning roli kuchaygan, global muammolar (ekologiya, qashshoqlik, ochlik va boshqalar) dolzarb bo'lib, ularning yechimi xalqaro hamkorlikni talab qilmoqda.

Xulosa

Xalqaro munosabatlar tarixini davrlashtirish - bu murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Har bir yondashuvning o'z afzalliklari va kamchiliklari mavjud. Eng muhimi, xalqaro munosabatlar tarixini o'rganish orqali biz insoniyatning o'tmishini tushunamiz va kelajakda tinchlik va hamkorlikni mustahkamlashga hissa qo'shamiz.

Hozirgi davrda xalqaro munosabatlar va davlatlar tashqi siyosatining xarakterli xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Ochiqlik, o'zaro manfaatli va konstruktiv xalqaro munosabatlar: O'zbekiston Respublikasi o'z milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda ochiq, o'zaro manfaatli va konstruktiv xalqaro munosabatlarni olib bormoqda.

"Dunyoga ochiqlik siyosati": Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari va yuqori saviyadagi muzokaralarda faolligi tufayli "Dunyoga ochiqlik siyosati"ga sodiq qolayotgan Yangi O'zbekistonning yangi hamkorlari ortib bormoqda.

Xalqaro siyosiy munosabatlar va ularning rivojlanish xususiyatlari: Hozirgi jahon taraqqiyotida xalqaro siyosiy munosabatlar va ularning rivojlanish xususiyatlari mamlakat hayoti va xalqaro maydonda ro'y berayotgan o'zgarishlarga muvofiq holda ishlab chiqilmoqda va amalga oshirilmoqda.

Milliy xavfsizlikni ta'minlash: Har bir davlat o'z milliy xavfsizligini ta'minlashga intilishi, avvalo uning ichki siyosati orqali namoyon bo'ladi va u tashqi siyosatda aks etadi.

Ko'p vektorli tashqi siyosat: Yangi O'zbekiston o'zining ko'p vektorli tashqi siyosati orqali Rossiya, Xitoy, AQSh, Yevropa Ittifoqi va qo'shni davlatlar bilan o'zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirib, xalqaro maydonda faol ishtirok etmoqda.

Yevrosentrizmning ahamiyatini yo'qotishi: Xalqaro munosabatlarning yangi

modeli hech qanday holatda yevrosentrik bo'lmaydi, evrosentrizm tamoyili o'z ahamiyatini yo'qotgan.

Hozirgi davrda xalqaro munosabatlar va davlatlar tashqi siyosatining xarakterli xususiyatlari

Hozirgi davr xalqaro munosabatlarida bir qator muhim xususiyatlar kuzatilmoqda. Ushbu xususiyatlar davlatlarning tashqi siyosatiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Keling, ularni ko'rib chiqamiz:

1. Globallashuv

Globallashuv jarayoni dunyo mamlakatlari o'rtasida o'zaro bog'liqlikning kuchayishiga olib keldi. Iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa aloqalar tobora kengayib bormoqda. Bu esa davlatlar uchun yangi imkoniyatlar yaratish bilan birga, yangi tahdidlarni ham keltirib chiqarmoqda.

2. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi xalqaro munosabatlarga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa texnologiyalar davlatlar o'rtasida tezkor aloqa o'rnatishga, ma'lumot almashishga va jamoatchilik fikrini shakllantirishga yordam bermoqda. Biroq, bu texnologiyalar kiberxurujlar, dezinformatsiya va boshqa tahdidlar uchun ham ishlatilishi mumkin.

3. Xalqaro tashkilotlarning roli

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Jahon Savdo Tashkiloti (JST), Xalqaro Valyuta Fondi (XVF) va boshqa xalqaro tashkilotlar zamonaviy xalqaro munosabatlarda muhim rol o'yamoqda. Ular davlatlar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirishga, global muammolarni hal qilishga va tinchlikni saqlashga yordam bermoqda.

4. "Yirik" davlatlarning ta'siri

AQSh, Xitoy, Rossiya va boshqa "yirik" davlatlar xalqaro munosabatlarda katta ta'sirga ega. Ularning tashqi siyosati global miqyosdagi vaziyatga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. "Yirik" davlatlar o'rtasidagi raqobat va hamkorlik xalqaro munosabatlarning yo'nalishini belgilaydi.

5. Regional mojarolar

Dunyoning turli mintaqalarida etnik, diniy, siyosiy va boshqa ziddiyatlar natijasida kelib chiqadigan mojarolar davom etmoqda. Ushbu mojarolar nafaqat shu mintaqalarda, balki global miqyosda ham xavfsizlikka tahdid soladi.

6. Terrorizm

Terrorizm xalqaro munosabatlarda jiddiy muammoga aylandi. Terroristik tashkilotlar davlatlar va xalqaro tashkilotlarga qarshi kurash olib bormoqda. Terrorizmga qarshi kurash global miqyosda hamkorlikni talab qiladi.

7. Ekologik muammolar

Global iqlim o'zgarishi, atrof-muhitning ifloslanishi va boshqa ekologik muammolar insoniyat uchun jiddiy tahdid hisoblanadi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun xalqaro hamkorlik zarur.

Davlatlar tashqi siyosatining xususiyatlari

Hozirgi davrda davlatlar tashqi siyosati quyidagi xususiyatlarga ega:

Ko'p vektorlilik: Davlatlar bir nechta yo'nalishda tashqi siyosat olib boradi va turli davlatlar bilan hamkorlik qiladi.

Pragmatizm: Ideologik qarashlar ikkinchi o'ringa tushib, milliy manfaatlar ustuvor bo'ladi.

Faol ishtirok: Davlatlar xalqaro tashkilotlar ishida va global muammolarni hal qilishda faol ishtirok etadi.

Mintaqaviy hamkorlik: Mintaqaviy tashkilotlar va hamkorlik davlatlar uchun muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi davr xalqaro munosabatlari murakkab va dinamik xarakterga ega. Globallashuv, axborot texnologiyalari, xalqaro tashkilotlar, "yirik" davlatlar, regional mojarolar, terrorizm va ekologik muammolar xalqaro munosabatlarning asosiy xususiyatlari hisoblanadi. Davlatlar tashqi siyosati ham ushbu xususiyatlarga mos ravishda shakllanadi.

Bugungi jadal rivojlanib borayotgan davrda davlatlarning boshqa mamlakatlarga ta'sir etish yo'llari kengaymoqda. Hozirgi vaqtga qadar tashqi siyosatning deyarli asosiy quroli qattiq kuch "hard power" hisoblangan bo'lsa XX asrning o'rtalaridan boshlab xalqaro munosabatlarda yangi yo'nalish rivojlanib, endi ta'sir o'tkazishda kuch va zo'ravonlik hamda cheklar orqali majburlashdan tashqari, o'z tomoniga jalb qilishning turli iqtisodiy, madaniy va gumanitar ta'sir kuch yordamida, qo'yilgan maqsadlarga erishish mumkinligi haqidagi "soft power" yumshoq kuch tushunchasi paydo bo'ldi. Ammo hozirgi siyosiy jarayonlarda "hard power" starategiyasi hali hanuz o'z ta'sir kuchini saqlab qolganini rad eta olmaymiz, ammo butun dunyoda ham "soft power"ning mavqeyi va ta'siri oshib borayotganligini alohida ta'kidlash ham joizdir.

Zamonaviy davrda "yumshoq kuch" xalqaro munosabatlardagi eng mashhur atamalardan biridir bo'lib ko'pchilik tahlilchi olimlar, o'zlarining nutqlarida va ilmiy ishlarida ushbu atamadan foydalanadilar. "Soft power"-bu majburlovchi xarakterga ega bo'lgan "hard power" dan farqli o'laroq, ixtiyoriy ishtirok etish, uning modelini yoqtirish va jozibadorlik asosida istalgan natijalarni olish qobiliyatini nazarda tutadi. Bu atamani kiritgan amerikalik siyosatshunos Jozef Nayning fikricha, mamlakat tili va madaniyati, xalqaro munosabatlarda asosiy rol o'ynaydigan, jahon siyosati va biznes aloqalariga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi siyosat bu "yumshoq kuch"dir. "Soft power" atamasi birinchi marta Garvard universiteti professori Jozef Nay tomonidan 1990-yilda chop etilgan "Bound to Lead: The Changing Nature of American Power" kitobida kiritilgan. Keyinchalik u ushbu konsepsiyanı 2004 yilda "Soft power: Jahon siyosatida muvaffaqiyatga erishish vositalari" kitobida va "Yumshoq kuch va AQSh-Yevropa munosabatlari" maqolasida ishlab chiqdi. Ba'zan mamlakatlar jahon siyosatida o'zi xohlagan natijalarga erishishni istaydilar hamda boshqa davlatlar - ularning qadriyatlaridan o'rnak olib, farovonlik va ochiqlik darajasida intilishini va ularga ergashishlarini xohlaydilar. Shu sababli davlatlarni

jahon siyosatiga ko'proq jalb qilish, harbiy kuch yoki iqtisodiy sanksiyalar bilan tahdid qilish orqali ularni o'zgartirishga majbur qilish ham muhimdir. Ammo "Soft power" boshqalarning afzalliklarini shakllantirish qobiliyatiga tayanadi. Katta tashkilotlarni faqat buyruqlar bilan boshqarish qiyindir. Hamjamiyatlik esa ularga umumiy maqsadlarga erishishda yordam berishni xohlaydigan do'stona va jozibali kuchning zamonaviy amaliyotlariga tayanadi". Masalan so'nggi yillarda Xitoy va Turkiya o'z tili va madaniy ta'siri orqali Markaziy va Janubiy -sharqiy Osiyo mamlakatlariga kirib bordi. Qisqa qilb aytganda bugungi kunda xitoy tilidan Taiwan mamlakati rasmiy ravishda foydalanadi. Huddi shunday holatni Turkiya davlati bilan etnolingvistik va madaniy jihatdan qardoshlik munosabatlariga ega bo'lgan davlatlar timsolida ham ko'rish mumkin. Jozef Nay "soft power" konsepsiyasini ishlab chiqar ekan uni mohiyatini Amerika tajribasida batafsil tushuntirib o'tgan. Biroq "yumshoq kuch" dan boshqa davlatlar o'z tashqi siyosatida foydalanishida qanday samarasi borligi to'g'risida hali ham noaniqliklar mavjuddir. Yuqorida ta'kidlanganidek bugungi kunda xalqaro maydonagi kuchlar muvozanatini qattiq va yumshoq kuchlar shakillantirish sifatida tushiniladi. Agar davlatlar harbiy va iqtisodiy qudratni o'z ichiga olgan qattiq kuchga murojat qilishsa bu "hokimiyatni amalga oshirishning ko'rsatma yoki buyruq berish usuli" deb hisoblanadi. Ammo, Jeyms Medisonning keltirilgan "hamyon va qilich" iborasi yigirma birinchi asrda hokimiyatni amalga oshirish usuli endi yetarli bo'lmasligini va harbiy kuch yordamida muammolar hal etilishidan ko'ra uni ya'nada chigallashtirib yuboradi degan so'zlarini ta'kidlash joizdir.

Bunday munozalarga qarshi Jozef Nay o'zining "soft power" asarida shunday deydi, "Amerika o'zining qattiq kuch manbalaridan tashqari hokimiyatga erishishning boshqa bilvosita yo'li mavjudligini mamlakat jahon siyosatida o'zi ma'qul ko'rgan natijaga erisha olishini ta'kidlagan. Chunki boshqa davlatlar unga ergashishni xohlashini yoki bunday ta'sirnilarni keltirib chiqaradigan tizimga rozi bo'lishini bayon etgan. Ushbu munozaralardan so'ng, turli olimlar qattiq va yumshoq o'rtasidagi farqni ko'rsatadigan formulalarni ishlab chiqdilar Metyu Freyzer quydagicha fikir bildiradi, "Qattiq kuch tahdid solidi, yumshoq kuch da'vat etadi. Qattiq kuch ko'ndiradi, yumshoq kuch ishontiradi". reytingida o'zgarishlar kuzatilmoqda masalan: AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, kabi mamlakatlarga Xitoy, Karea, Yaponiya davlatlarining yetib olishi o'zgarishlar ko'lамини belgilaydi. Davlatlar tashqi siyosatida "yumshoq kuch" strategiysini qo'llash borasidagi ba'zi amaliy yondashuvlarga to'xtalib o'tsak. davlatlarining gullashi davomiy bo'lib chiqmadi. Bu yunon- fors urushlaridagi g'alabalar va Peloponnes urushlari orasidagi qisqa mo'tadillik va ko'tarilish davri edi. Buning ustiga hatto o'sha davrda ham mo'tadillik nisbiy edi, ko'tarilish esa qulash tendensiyalariga to'la edi. Forslar bilan to'qnashuvda yunonlarning ozod fuqarolar jamiyati forslar despotiyasidan ustun ekanligini ishonch bilan isbotlab berishdi. Shu bilan birga yunon-fors urushlari xo'jalikning kuchli quzdorlik shakllarini rivojlantirgan holda fuqaroviy jamoalarda ijtimoiy va egalik manfaatlarini o'sishiga yordam bergen. Shuningdek, ular umumiy ozodlikning qudratli himoyachilarini bo'lgan Afina va

Spartani oldingi qatorlarga olib chiqdi. Qadimgi Yunonistonda, aslida shahar davlatlar orasida asosan ikki qarama-qarshi kuch mavjud bo‘lgan. Bir tomonda Sparta Janubiy Yunonistonning katta qismlari bo‘yicha konservativ polislarni birlashtirgan holda mil.av. VI asrdayoq Peloponnes ligasining tashkilotchisiga aylangan edi. Boshqa tomonda keyingi yuz yillikdagi yirik birlashma - Delos, yoki savdo aloqalari jihatida umumiylashgan dengizbo‘yi va orol polislarning katta qismini birlashtirgan va forslarga qarshi kurashda o‘scha kuchlarni birlashtirishni ko‘zlagan Afina dengiz ittifoqini mavqeい ortib borardi. Peloponnes ligasining yadrosi konservativ, agrar tipga mansub bo‘lgan, asosan savdo-iqtisodiy aloqalarga moslashgan doriylar jamoalari edi. Har jamoa o‘z sardorining tashabbusiga bo‘ysungan holda ta‘sir doirasini saqlab qolish va kengaytirishga intilgan va raqobatchi guruhlar muvaffaqiyatlarini obdon kuzatib borgan. Ikki ittifoq o‘rtasidagi bu raqobat- o‘z o‘rnida mil. av. V asrda Yunoniston jamiyatida shunday siyosiy qarama- qarshilikka aylanganki, u umumiy katta ichki mojaroni, Peloponnes urushi (mil.av. 431-404-yy)ni keltirib chiqargan. Bunda birinchi o‘rinda, Afina tashabbuskor tomon sifatida namoyon bo‘ladi. Tez rivojlanib borayotgan iqtisodiyot va unga asoslangan ijtimoiy harakatlarga bo‘lgan ehtiyoj afinaliklarni o‘z ta‘sir doirasini, hududini kengaytirishga, xom-ashyo va resurslarini ko‘paytirishga undagan. Afina bilan dengizda raqobatini olib borgan doriylarning savdo shaharlari, eng avvalo, Megara va Korinf, shuningdek butunlikni saqlab qolish g‘amidagi katta yer egalarining barchalari Spartaga murojaat qilishardi. Afinaning V asrning 50-yillarida Istma va O‘rta Yunonistonda o‘z kuchini o‘rnatishga bo‘lgan harakatlari oxir oqibat uning Sparta bilan qurolli to‘qnashuviga olib keldi. Bu birinchi yoki kichik Peloponnes urushi nomini olgan harbiy to‘qnashuvlar (mil. av. 457-446-yy.) o‘ziga xos kuchlarni sinash voqeasi bo‘ldi. U ikki tomonga ham muvaffaqiyat keltirmadi; shunchaki navbatdagi urushga tayyorgarlik vazifasini o‘tovchi qisqa vaqt bo‘lgan “O‘ttiz yillik” tinchlik sulhi bilan tugadi.

Amerika Qo’shma Shtatlari 2017-2020 yillar oralig’ida dunyo yetakchiligidagi o‘z mavqeyini boy berishi turli sabablar bilan izohlansada ammo “Amerika demokratiyasini” tashqi siyosatga yoyishi “yumshoq kuch” vositalariga asos lanadi: Masalan, IELTS (Ing. International English Language Test System) uchun harakat qilayotgan yoshlar soning tobora ortib borishiga olib kelmoqda yoki bo'lmasa OAV, Internet, kino sanoati ham Amerika tashqi siyosatini rivojlanishiga olib kelmoqda.

Fransyaning “yumshoq kuchi” esa boshqa davlatlarnikidan farq qiladi chunki uning “yumshoq kuchi” xalq diplomatiyasi bilan ifodalanadi. Masalan: Fransyaning mashhur adabiyoti, kino olami, nufuzli universitetlari, arxitekturasi va yuksak fransuz modasi Fransiyaga “yumshoq kuch” siyosatida yetakchilar qatorida qolish imkonini beradi.

Ushbu konsepsiyanı qo’llash borasida Turkiya va Xitoy davlatlarining o‘z yo‘nalishlari va ustинliklari mavjuddir. Xitoy Respublikasi bundan o‘n yil oldin tashqi siyosatda “yumshoq kuch” salohiyatidan foydalanishni boshlagandi. Biz buni

“Konfutsiy institut”lari misolida ko'rishimiz mumkindir.

Turkiyaning ham bu siyosatda o‘z ustinliklari mavjuddir. Birinchi navbatda Turkiya madaniyati va ta’limini targ’ib qilishda ishlab chiqilgan loyihalarni (“TIKA”, “Turkiya Buruslari”) aytish mumkindir. Bundan tashqari Turkiya asosiy e’tiborini Shimoliy Afrika va Markaziy Osiyo davlatlariga qaratmoqda hamda mintaqaga davlatlari bilan hamkorlik shartnomalarini imzolamoqda. Bugungi kunda Turkiya o‘z tashqi siyosatini amalga oshirishda “hard power” dan ko’ra “soft power” vositalaridan foydalanib kelmoqda.

Nazorat savollari:

1. Xalqaro maydondagi kuchlar xaqida nimalarni bilasiz?
2. Xalqaro maydondagi kuchlar mohiyatini tushuntiring?
3. Xalqaro maydondagi kuchlar o‘rtasidagi diplomatik konfliktni asosi..?
4. Xalqaro maydondagi kuchlar ittifoqining parchalanishi sabablarini izoxlab bering?

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Bogaturov A.D., Averkov V.V. Istorya mejdunarodnbix otnosheniy. 1945- 2008. M., 2010.
2. Bokmiinin A.G. Istorya mejdunarodnbix otnosheniy i diplomatii v drevnem mire. M. 1948.
3. Istorya mejdunarodnbix otnosheniy. Osnovnbie etapbi s drevnosti do nashix dney. - M., Logos, 2007. / pod red. G.V.Kamenskoy, O.A.Kolobova, E.G.Solovyeva.
4. Black Jeremy. A History of Diplomacy. Reaktion Books, 2010.

IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-Amaliy mashg'ulot:

Salib yurishlarining xalqaro munosabatlarga ta'siri. (2 soat)

Rim papalari tashqi siyosati. Yuz yillik urush (1337-1453) va uning natijalari.

Salib yurishlari — [1096-1270-yillarda G'arbiy Yevropa](#) zodagonlari va [katolik cherkovi](#) tomonidan [Yaqin Sharqqa \(Suriya, Falastin, Shimoliy Afrika\)](#) qilingan bosqinchilik urushlari. Salib yurishlarining bosqinchilik mohiyati diniy shiorlar (g'ayridin (musulmonlar)larga qarshi kurash va „xudo qabri“ hamda „muqaddas yer“ (Falastin)ni ozod qilish) bilan niqoblangan.

Salibchilar, odatda, kiyimlariga salib (xoch) belgisini tikib olishgan (yurishlarning nomi shundan). [XI-asrning](#) so'nggi choragida saljuqiyalar tomonidan [Vizantianing Kichik Osiyodagi](#) yerlarini hamda diniy an'ana bo'yicha „muqaddas shahar“ bo'lgan [Quddusni](#) egallab olishlari salibchilarning [O'rta dengizning](#) sharqidagi yerkarta bostirib kirishiga sabab bo'lgan. Vizantiya saljuqiyalarga qarshi kurashish uchun G'arbdagi davlatlardan bir necha bor harbiy yordam so'ragan. Salib yurishlarining bevosita tashkilotchisi bo'lgan Rim papasi bundan foydalangan. Papalar katolik cherkovining ta'sirini kuchaytirish va kengaytirish, pravoslav cherkovini Rimga bo'ysundirish maqsadida diniy fanatizmni avj oldirganlar. Salibchilarning ko'pchiligini qashshoqlashib qolgan ritsarlar, yirik sen'orlar hamda dehqonlar tashkil qilgan.

[Birinchi salib yurushi](#) (1096—1099) [1095-yil](#) Klermonda papa [Urban II](#) tomonidan e'lon qilingan. Yig'ilgan odamlarga quyidagicha murojaat qilgan: "U yerga borgan har bir kishi, vafot etgan taqdirda, gunohlari kechiriladi. Ular kofirlarga qarshi mo'l-ko'l ne'matlar keltiradigan jangga chiqsinlar... U yerning daryolarida sut va asal oqadi. Ha, oldin qaroqchi bo'lganlar, o'z birodarlar va qabilalariga qarshi kurashganlar jangchilarga aylanadi. Bu yerda o'kinganlar, u yerda boy bo'ladi". [1099-yil](#) iyulda salibchilar [saljuqiyardan](#) Quddus (Iyerusalim) shahrini tortib olishgan va Quddus qirolligini tashkil etishgan.

[Ikkinchi salib yurushi](#) (1147—49)ga [1144-yil](#) saljuqiyalarning Edessa shahrini bosib olishlari bahona bo'lgan. Bu yurish mag'lubiyatga uchragan.

[Uchinchi salib yurishlari](#) (1189—92)ning boshlanishiga [1187-yil Misr](#) sultoni [Salohiddin](#) tomonidan Quddusning egallab olinishi sabab bo'lgan. Bu yurish ham barbod bo'lgan.

[To'rtinchi salib yurushi](#) (1202—04)ni [1199-yil](#) papa [Innokentiy III](#) uyushtirgan. Uning natijasida fransuz, nemis va italyan salibchilari dastlab Misrga mo'ljallangan yurishning yo'nalishini o'zgartirib, xristianlar yashaydigan shaharlar — Zadar (Dalmatsiya, [1202-yil](#) noyabr, [Konstantinopol](#) (Vizantiya poytaxti, [1204-yil](#), aprel))ni bosib olib, Lotin imperiyasini tuzishgan.

[Besinchi](#) (1217—21), [Oltinchi](#) (1228—29), [Yettinchi](#) (1248—54), [Sakkizinchi](#) (1270), [To'qqizinchi](#) (1271-72) salib yurishlari samarasiz bo'lgan. [1291-yilda](#) Akra shahrining musulmonlar qo'liga o'tishi natijasida salibchilar Sharqdagi mulkclarini butunlay yo'qotganlar.

Nemis zodagonlarining [XII—XIII-asrlarda slavyanlar](#) va boshqa Boltiqbo'yli xalqlariga qarshi yurishlari hamda 1209—29-yillarda papalik tashabbusi bilan Shimoliy Fransiya ritsarlarini Janubiy Fransiyadagi diniy harakat qatnashchilari —

albigoychilarga qarshi [Albigoy urushlarini](#) ham ko‘pincha Salib yurishlari deb atashadi.^[1]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bogaturov A.D., Averkov V.V. Istorya mejdunarodnbix otnosheniy. 1945-2008. M., 2010.
2. Bokmanin A.G. Istorya mejdunarodnbix otnosheniy i diplomati v drevnem mire. M. 1948.
3. Istorya mejdunarodnbix otnosheniy. Osnovnie etapni s drevnosti do nashix dney. - M., Logos, 2007. / pod red. G.V.Kamenskoy, O.A.Kolobova, E.G.Solovyeva.

2-Amaliy mashg‘ulot:

Rishele diplomatiyasi. (2 soat)

O‘ttiz yillik urush(1618-1648) va uning natijalari. Vestfaliya sulhi.

O‘ttiz yillik urush (1618-1648) — [gabsburglar](#) bloki (Papalik va [Rech Pospolita](#) tomonidan qo‘llab quvvatlangan Ispaniya va [Avstriya](#) gabsburglari, Germaniyaning katolik knyazlari) bilan gabsburglarga qarshi [koalitsiya](#) (Angliya, Gollandiya va Rossiya quvvatlab turgan german protestant knyazlari, [Fransiya](#), Shvetsiya, Daniya) o‘rtasidagi urush. XVII asr boshiga kelib , diniy asosda boshlangan xalqaro mojaroga [katolik](#) va [protestantlar](#) o‘rtasida muvozanatni saqlashga harakat qilgan ko‘plab Yevropa davlatlari jalg qilindi.

